



MUSIQA TA'LIMI TALABALARI UCHUN SHASHMAQOMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Muallif: Avlaqulov Dilovar Hayitboboyevich ¹

Affilyatsiya: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim " kafedrası o'qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378084>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Shashmaqomning musiqa ta'limi yo'nalishi talabarlari uchun tarbiyaviy ahamiyati", shashmaqom uslubining o'rganilishi va o'quvchi hamda talabalarga ta'lim berishdagi roli to'g'risida hamda shashmaqom sanatining paydo bo'lishi va tarixi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Maqola shashmaqom uslubining musiqa ta'limi yo'nalishidagi o'qish jarayoniga ta'siri, talabalarga musiqaning tarixi, madaniyati va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqola asosan shashmaqom uslubining musiqa ta'lim yo'nalishidagi talabarlari uchun tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, milliy musiqa merosi, maqom, o'zbek madaniyati, ilmiy tadqiqotlar, shashmaqom, uslublar, ritm.

"Shashmaqom (ruscha: Шашмақом; tojikcha: шашмақом; forsha: شش مقام) — Markaziy Osiyo (asosan, o'zbek va tojik) xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shartsharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiy-ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'alarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir." "O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan kuy va ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy ijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha

yetib keldi. Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu kunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining ko'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar

Shashmaqom o'zbek mumtoz musiqasining cho'qqisi sifatida musiqa ta'limi talabalari uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U nafaqat musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki muhim shaxsiy fazilatlarni ham shakllantiradi.

Musiqiy rivijlanish; Eshitish qobiliyatini rivojlantirish. Shashmaqom maqom ohanglarining nozik tomonlarini farqlashga o'rgatadi.

Ritmning rivojlanishi; Shashmaqom ritm hissini o'rgatuvchi murakkab ritmik tuzilishga ega.

Xotirani rivojlantirish; Shashmaqom musiqa xotirasini mashq qiladigan ohanglarini qayta- qayta takrorlashga asoslangan.

Texnikaning rivojlanishi; Shashmaqom mohirlikni talab qiladi, shuning uchun uni o'rganish cholg'u chalish texnikasini rivojlantiradi.

Estetik didni tarbiyalash; Shashmaqom go'zallik tuyg'usini singdiradi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalash; Shashmaqomni o'rganish sabr va matonat talab qiladi.

Vatanparvarlikni tarbiyalash; Shashmaqom o'zbek madaniyatining bir qismi, shuning uchun uni o'rganish Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi.

Ma'naviyat tarbiyasi; Shashmaqom chuqur ma'naviy ma'noga ega bo'lib, insonlarning ichki uyg'unligini topishga yordam beradi. Umuman olganda shashmaqomni o'rganish;

Talabalarining dunyoqarashini kengaytiradi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ularni shaxs sifatida shakllantiradi. Shashmaqom nafaqat musiqa, balki o'zbek madaniyati va tarixining bir qismidir.

Shashmaqomni o'rganish nafaqat musiqiy mahoratni rivojlantirish, balki O'zbekistonning boy ma'naviy merosi bilan tanishish imkoniyatidir.

Ularning kasbiy tayyorgarligini muhim qismi. Noyob musiqa madaniyati bilan tanishish imkoniyati.

O'z- o'zini rivojlantirish va o'z – o'zini takomillashtirish orqali

Shashmaqom o'zbek xalqining bebaho tuhfasiga bo'lib, uni asrash va rivijlantirish zarur. Shashmaqomning hayotimizdagi o'rni; bu borada qabul qilingan qarorlar. Shashmaqom shunchaki musiqiy emas, u o'zbek madaniyati va tarixining bir qismidir. Bu odamlar hayotida, ularning qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shashmaqom uchun bir nechta qarorlar qabul qilinishi mumkin. Shashmaqomning tarbiyaviy ahamiyati haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar va asarlar mavjud, lekin uning tarbiyaviy ahamiyatiga oid eng mashhur kitoblardan biri "shashmaqom O'zbek klassik musiqasi " nomli asardir. U yozuvchilar Qosimjon Usmonov va Ochil Aqilov tomonidan yozilgan va shashmaqomning tarixi, asosiy xususiyatlari, rivojlanishi va ma'nosi haqida to'liq va tavsilotli ma'lumotlar taqdim etadi. Musiqa ta'limi yo'nalishida o'qigan talabalar uchun shashmaqomning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Shashmaqom uslubi O'zbekistonning milliy musiqiy an'anasi

hisoblanadi va uning o'rganilishi, tushunchalari va ilodiy qobiliyatlari o'quvchilarga muhimdir. Bu uslubni o'rganish orqali o'quvchilar;

1. O'zbek musiqasining asoslarini tushinishadi.

2. Tarixiy asoslar va g'oya ustida bilim olishadi.

3. Asar yaratish va ijodiy faoliyatga kirishadi.

4. Kreativlikni rivojlantiradi.

5. O'zbekiston milliy musiqasi va madaniyati haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.

Shuningdek, shashmaqomni o'rganish talabalarga musiqa turlarini tushunish, tarixiy uslublarga oid san'atni o'rganish va o'zgartirishga o'rgatadi. Ular uchun milliy musiqa merosini o'rganish, tanishlash va uning boshqa musiqiy uslublar bilan taqqoslash. Shashmaqom musiqasi O'zbekistonda va o'zbek xalqlarining asosiy musiqa janri hisoblanadi. Bu musiqa janri asrlar davomida rivojlanib kelgan va o'zbek milliy musiqasining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shashmaqomning ustoz-murabbiylari o'zbek musiqasi tarixi haqida ma'lumotlar ta'limidan katta ro'l o'ynaydi. Prezidentimiz shunchaki musiqa va san'at sohasiga katta e'tibor beradi va bunga oid qarorlar olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Darslik. Toshkent. 1963.

Ibrohimov O. Maqom va makon darslik. Toshkent. 1996.

Matyoqubov O. Maqomot. Darslik. Toshkent. 2004.

